
BUGUN “CHUQUR QISHLOQ” DA HAM ASFALTLASH BOSHLANDI

Aholi turmush farovonligini oshirish masalasiga strategik yoʻnalish sifatida eʼtibor qaratilib, soʻnggi yillarda izchil islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Ayniqsa, Davlatimiz rahbarining “2022-2023 yillarda mahallalar infratuzilmasini yanada yaxshilash boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi 408-sonli Qarori mahallalar infratuzilmasini yaxshilanishida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Qarorga koʻra, koʻplab mahallalarda elektr, suv taʼminoti yaxshilanib, ichki yoʻllar asfalt qilinmoqda. Ushbu saʼy-harakatlar natijasida aholiga qulayliklar yaratib berilmoqda.

Toshloq tumanida ham ichki yoʻllarni taʼmirlash maqsadida asfaltlash ishlari jadal surʼatlarda davom etmoqda. Bugun 2-sektor hududidagi “Chuqurqishloq” MFYda ham bunyodkorlik ishlari bajarilmoqda. “Chuqur qishloq” MFYdagi 9 ta koʻchaning 8 km.lik ichki yoʻllarida asfaltlash ishlari uchun qaror asosida Davlat byujetidan 2 milliard 966 million soʻm mablagʻ ajratilgan.

2023-03-09 18:10:55